

Qo'riqlash xizmati ko'rsatish bo'yicha

SHARTNOMA

“08” 01 2022 yil

№ 15022-X son

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i Q.A.Shodibekov (keyingi o'rinlarda “**Ijrochi**” deb yuritiladi) bir tomondan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari T.Komilov (keyingi o'rinlarda “**Buyurtmachi**” deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda “**Tomonlar**” deb yuritiladi) mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. Shartnoma predmeti

1. Ijrochi maxkama, harbiylashtirilgan qo'riqlash va soqchilik qo'riqlashi ko'rinishida texnik qo'riqlash markazidan (keyingi o'rinlarda TQM deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. Umumiy shartlar

2. **Buyurtmachi** ob'ektни qo'riqlashga topshiradi va “**Ijrochi**” esa ushbu vazifani quyidagi kuchlar bilan bajarishni o'z zimmasiga oladi. **O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi Shayxontohur tuman Qo'riqlash bo'limi harbiylashtirilgan soqchi qo'riqlash postlari orqali 2 ta 24 soatlik (soat 09:00 dan ertasi kuni soat 09:00 gacha, dam olish kunlarisiz) 1 ta 12 soatlik (08-00 dan 20-00 ga qadar, shanba, yakshanba va bayram kunlari dam) saf bo'linmasi qo'riqlash posti bilan, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 2A-uyda joylashgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'muriy binosini (keyingi o'rinlarda ob'ekt deb yuritiladi) Ijrochiga topshiradi, Ijrochi qabul qiladi.**

3. Obyektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarining (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Obyektdagi kirish-chiqish, ichki ob'ekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki ob'ekt rejimini tashkil etish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur Shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Obyektни texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo'riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Obyektни yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6. Obyektни qo'riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchi itlardan foydalanish mumkin.

7. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, obyektда __ ish kuni ichida qo'riqlash turi yo'lga qo'yiladi.

Obyektда soqchilik qo'riqlash turi va harbiylashtirilgan qo'riqlash obyektga __ ish kuni ichida yo'lga qo'yiladi.

8. Buyurtmachi ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan talablarni bajarmaganda Ijrochi qo'yilmaydi, qo'yilgan Ijrochi esa chaqirib olinadi.

3-bob. To'lovlarni amalga oshirish

9. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

Shartnomaning qiymati (01 yanvar kundan mart oyining oxiriga qadar) **180 607 872,0 ,00** (bir yuz sakson million olti yuz yetti ming sakkiz yuz yetmish ikki) so'm.

a) post-soat hisobida **harbiylashtirilgan nazoratchi** xizmati uchun (01 yanvar kundan mart oyining oxiriga qadar) **QQSsiz 139 328 640,00** (bir yuz o'ttiz to'qqiz million uch yuz yigirma sakkiz ming olti yuz qirq) so'm;

b) post-soat hisobida **saf bo'linmasi** xizmati uchun (01 yanvar kundan mart oyining oxiriga qadar) **QQSsiz 41 279 232,00** (qirq bir million ikki yuz yetmish to'qqiz ming ikki yuz o'ttiz ikki) so'mni tashlil etadi.

10. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

11. **Buyurtmachi** mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab, keyingi oyning boshlanishiga 10 kun qolganda **oylik to'lovni 100 foizi miqdorida** amalga oshiradi.

Buyurtmachi byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi bo'lsa, oylik to'lovning **100 foizi** miqdorida to'lovni keyingi oy boshlanishidan **10** kun oldin amalga oshiradi.

12. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga aktseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga xaqlidir.

Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda Ijrochi Buyurtmachi bilan to'langan to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

4-bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

13. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'rilishini Ijrochidan talab qilish;

Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zararni undirish.

14. Buyurtmachining majburiyatlari:

mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 202__ yil "___"_____ kunidagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan obyekt, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (obyektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, obyekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash;

har qanday moddiy qimmatliklarni obyekt hududining devor to'sig'idan 5 metr uzoqlikda (obyekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

Ijrochi bilan birgalikda xar chorakda kamida bir marta obyektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnoma tuzish;

belgilangan qo'riqlash rejimi talablarini bajarish va texnik qo'riqlash vositalarining tegishli holatini ta'minlash;

binoda rejalashtirilayotgan kapital ta'mirlash ishlari, obyektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlar profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, obyekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk huquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha

qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi haqida Ijrochini bunday ishlarning boshlanishidan kamida 7 kun oldin ogohlantirish;

obyektida ish kuni yakunida qo'riqlash signalizatsiyasini yoqish, uning nosozligi holatida bu haqda Ijrochini ogohlantirish va nosozlik bartaraf etilmagunga qadar obyektни tashlab ketmaslik va belgilangan tartibda qo'riqlashga topshirish. Obyektни qo'riqlashga topshirganlik haqida TQMni xabardor qilib, 5 daqiqadan so'ng obyektning qo'riqlashga qabul qilinganligi haqida ishonch hosil qilish;

obyektни, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventilyasiya teshiklari yopilganligini hamda avtonom qo'riqlash signalizatsiyasini va hududning yoritilish holatini tekshirish, qo'riqlanadigan binolarda elektr jihozlarining, boshqa yong'in manbalarining yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning obyektida qolishiga yo'l qo'ymaslik;

qo'riqlanayotgan hududda binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatda qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qo'riqlashga topshirish;

maxsus jurnalda o'z vakili tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan obyektlarni, alohida xonalarni qo'riqlashga topshirish, qo'riqlash tugagandan so'ng qo'riqlashdan chiqarish;

qo'riqlanadigan xonalarning butunligi buzilganligi haqida yoki obyektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar etkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan Ijrochini xabardor qilish va obyektga Ijrochi vakili etib kelguniga qadar ko'rsatilgan joylarning daxlsizligini ta'minlash;

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pulbt raqamlarini oshkor qilmaslik;

Ijrochi vakillarini obyektдаги ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalari bilan ularning o'z vazifalarini bajarishiga oid qismi bilan tanishtirish;

15. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan obyektда o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rioya qilinishini talab qilish;

mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

ko'zdan kechirish dalolatnomasida ko'rsatilgan qo'riqlash-texnika vositalarini joriy qilish bo'yicha Buyurtmachiga tavsiyalar berish.

16. Ijrochining majburiyatlari:

obyektда postlar dislokatsiyasiga (patrul yo'nalishiga) muvofiq qo'riqlash naryadini joriy etish;

mazkur Shartnomada va uning ilovalariga muvofiq obyektни hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

qo'riqlanayotgan hududdagi, lekin binodan tashqarida joylashgan moddiy qimmatliklarning miqdori, assortimenti, o'ralgan yoki qadoqlangan holatini tekshirib, qayta hisob-kitob asosida qabul qilish-topshirish jurnalida ro'yxatdan o'tkazgan holda hamda Ijrochi va Buyurtmachi vakillari tomonidan imzolangan holda qabul qilib olish;

obyektда kirish-chiqish va obyekt ichki tartibiga rioya etish, obyekt hududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish;

propusk rejimi mavjud bo'lgan obyektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan obyektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarning chiqib ketishini ta'minlash;

obyektни qo'riqlash vaqtida joydagi yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta'minlash;

obyektда yong'in chiqishi yoki yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi holatida zudlik bilan yong'in bo'limiga yoki Buyurtmachiga xabar berish;

obyektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan Buyurtmachining vakilini chaqirish va obyektning daxlsizligini ta'minlash;

yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketgan holatlarda signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va obyektни qayta topshirish uchun Buyurtmachi vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va obyektни qayta topshirish bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

obyektни qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda obyektidagi texnik mustahkamlik bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnikaviy jihatdan mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigini o'tkazish, Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablarining har bir buzilishi bo'yicha Ijrochi va Buyurtmachining vakillari ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzish va bir nusxasini Ijrochining rahbariga tegishli choralar ko'rish uchun berish;

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka etkazilgan zarar to'g'risida navbatchi qismiga va Buyurtmachiga zudlik bilan xabar berish, qo'riqlash vakili etib kelgunga qadar hodisa yuz bergan joyning daxlsizligini ta'minlash.

5-bob. Tomonlarning javobgarligi

17. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

18. Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalishlarida bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

19. Penyani to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

20. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga etkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

Ijrochining aybi bilan zarar etkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to'liq miqdorda qoplanadi.

21. Ijrochining aybi bilan etkazilgan zararining miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

22. Quyidagi hollarda Ijrochi zararni qoplamaydi:

ijrochi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida etkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan tasdiqlansa;


qabul qilish-topshirish jurnalida qayd etilmagan mulkka zarar etkazilganda;

buyurtmachining xodimlari tomonidan yoki ularning aybi bilan zarar etkazilganda.

23. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik uchun belgilangan neustoyka (jarima, penya) to'lash hamda zararni qoplash Tomonlarni Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6- bob. Nizolarni hal qilish tartibi

24. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.



7-bob. Fors-major

25. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

26. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi tomon boshqa tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda habardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

27. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8-bob. Yakuniy qoidalar

28. Mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Mazkur Shartnoma byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'lari oluvchilari bilan tuzilganda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

29. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda Buyurtmachi va Ijrochining vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

Tomonlar mazkur shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

30. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

Ushbu shartnoma 2 **(ikki) nusxada** tuzilib, birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasiga va ikkinchi nusxasi **Buyurtmachiga** beriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha — Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar;

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari bo'yicha — belgilangan tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab joriy yilning **31 dekabr** kuni oxirigacha.

Buyurtmachi ho'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lgan taqdirda Buyurtmachi mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Ijrochiga Shartnoma muddati tugashidan 30 kun oldin ma'lum qilmasa, mazkur Shartnomaning amal qilish muddati huddi shu muddatga va huddi shu shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi.

31. Agar texnik qo'riqlash vositalari Buyurtmachining aybi bilan ishdan chiqqan, kapital yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, biroq Buyurtmachi buni rad etsa, Ijrochi Buyurtmachiga yetti kun oldin yozma ma'lum qilgan holda alohida obyektlarni qo'riqlashni rad etishi mumkin.

32. Buyurtmachi ketma-ket uch marta mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatda to'lamasa, Ijrochi mazkur shartnomani Buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

33. Ijrochi ketma-ket uch marta post va patrul yo'nalishlarida qo'riqlash tartibini buzsa, Buyurtmachi mazkur shartnomani Ijrochini yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

34. **Buyurtmachi** alohida obyektlarni qo'riqlashni rad qilish yoki mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida **Ijrochiga ikki oy** oldin yozma ravishda ma'lum qiladi. (eslatma: Bank muassasasi bekor qilish bo'yicha hukumat qarorlari va yuqori turuvchi organlarini farmoyishlari asos bo'ladi).

35. Taraflar o'zlari tuzgan xo'jalik shartnomasining shartlarini ularning shartnoma tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga

haqlidirlar. Shartnoma muddati tugashi tomonlarni uni buzganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

36. Obyektning xususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

37. Ushbu Shartnoma ikki taraflama imzolanganidan so'ng 2021 yil _____ kunida tuzilgan 15022-X sonli Shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.

9-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

Ijrochi

Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi

Yuridik manzili: Toshkent shahar
Markaz-4 Qashqar ko'chasi 3-uy

Bank rekvizitlari:

H/r: 21 596 000 300 447 995 001

MFO: 00014


STIR: 202 628 856

IFUT: 80200

O'z.R. Markaziy banki Bosh Boshqarmasining
HKM Toshkent shahri

Buyurtmachi

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi



Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i


O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri
o'rinbosari



Q.A.Shodibekov



T.Komilov



Юрист
Х. Асроров

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Ўзбекистон Республикаси Миллий
гвардияси Тошкент шаҳар Қўриқлаш
бошқармаси бошлиғи

Қ.А.Шодибеков

« РОЗИМАН »

Ўзбекистон Республикаси Халқ
таълими вазири ўринбосари

Т. Комилов

Тошкент шаҳар, Шайхонтохур тумани, Навоий кўчаси 2 А-уйда жойлашган Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги маъмурий биносини қўриқлашда хизмат қилаётган Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Тошкент шаҳар Қўриқлаш бошқармаси Шайхонтохур тумани Қўриқлаш бўлими харбийлаштирилган соқчи ва саф бўлинмаси нарядларини 2022 йил 01 январ кунидан бошлаб моддий таъминлаш тўғрисида тузилган

ХИСОБ – ВАРАКАСИ

Қўриқлаш ойлари	Пост сони шартли	Қўриқлаш вақти	Бир ойлик қўриқлаш вақти	Қўриқлаш Пост соат нархи	Қўриқлаш Пост соат нархи	Жами
Январь	2	24	744	32252	47990976,0	61983936,0
	1	12	240	58304	13992960,0	
Февраль	2	24	672	32252	43346688,0	57339648,0
	1	12	240	58304	13992960,0	
Март	2	24	744	32252	47990976,0	61284288,0
	1	12	228	58304	13293312,0	
Жами:						180607872,0

Жами:

180607872,0

Бир юз саксон миллион олти юз етти минг саккиз юз етмиш икки сўм, 00 тийин

Ўзбекистон Республикаси Миллий
гвардияси Тошкент шаҳар
Қўриқлаш МИБ бошлиғи

Н.Н.Рўзибаев

Асос: Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иш ҳақи, пенсиялар, стипендиялар ва нафақалар миқдорини ошириш тўғрисида”ги 2021 йил 17 августдаги ПФ 6279-сонли Фармони.